


“TASDIQLAYMAN”:
“Temiryo‘lkargo” AJ Qo‘qon filiali boshlig‘i


Sh.M.Komiljonov
“ 23 ” 06. 2026 yil

**“Temiryo‘lkargo” AJ Qo‘qon filiali boshlig‘i Sh.M.Komiljonov
boshchiligida joylarga borib o‘tkazilgan yig‘ilish**

B A Y o N N O M A S I

23.06.2026 yil

Farg‘ona viloyati

Yig‘ilish raisi:

“Temiryo‘lkargo” AJ Qo‘qon filiali boshlig‘i

Sh.M.Komiljonov

Yig‘ilishda qatnashganlar: “Qo‘qon” MTU filiali yuk va tijorat ishlari bo‘limi katta noziri – X.Ne‘matjonov
“Qo‘qon” MTU filiali MTUN bo‘limi yetakchi mutaxassislari – S.Komilov
Kirg‘ili va Quvasoy stansiyasi boshliqlari va shu stansiyalarda ishlovchi “Farg‘onaazot” AJ, “Quvasoysement AJ va “Kvars” AJ raxbar va ma’sul xodimlari, jami – 15 kishi.

KUN TARTIBIDA:

1. "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ boshqaruv raisining tadbirkorlarning murojaat, muammo va takliflarini tizimli o‘rganish hamda joyida hal etishga qaratilgan 15.05.2026 yil kungi 136-UN-sonli "Joylarda tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi ijrosi yuzasidan.
2. Qo‘qon MTU tizimidagi Kirg‘ili va Quvasoy stansiyalarida faoliyat yuritayotgan “Farg‘onaazot” AJ, “Quvasoysement AJ va “Kvars” AJ raxbar va ma’sul xodimlari bilan ochiq muloqot: yuk ortish hajmini oshirish, maxalliy va eksport va import yo‘nalishlaridagi yuk jo‘natuvchi va yuk oluvchilarni temir yo‘lda yuk tashishga keng jalb qilish, ularni temir yo‘l transportida yuk tashish yuzasidan taklif va muammolarini o‘rganish.

Kun tartibi bo‘yicha yig‘ilishni “Temiryo‘lkargo” AJ Qo‘qon filiali boshlig‘i Sh.M.Komiljonov so‘z ochib, "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ boshqaruv raisining tadbirkorlarning murojaat, muammo va takliflarini tizimli o‘rganish hamda joyida hal etishga qaratilgan 15.05.2026 yil kungi 136-UN-sonli "Joylarda tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi ijrosi yuzasidan xamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.10.2023 yil kungi "O‘zbekiston

Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329 sonli Qarori moxiyati, talablari shuningdek, temir yo'l transporti sohasini isloh qilish, sog'lom raqobat muhitini yaratish, sohaga oid xususiy sektorni keng jalb qilish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish yuzasidan temir yo'l transporti sohasida amalga oshirilayotgan vazifalar to'g'risida so'z olib bordi.

Temir yo'l transporti xizmatidan foydalanayotgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun temir yo'l orqali yuk tashish xizmatini ko'rsatuvchi vagon operatorlarini erkin tanlash xuquqini ta'minlash, yuk tashish xizmatlarini amalga oshirish, yuk, vagon va konteyner xo'jaligini saqlash va rivojlantirish, multimodal "eshikdan eshikkacha" tashuvlarni yo'lga qo'yish, logistika markazlari va terminallarini tashkil etish bo'yicha "Temiryo'lkargo" AJ tashkil etilganligi to'g'risida so'z olib borildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ayniqsa, transport va logistika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tadbirkorlik sub'ektlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston temir yo'llari tizimida ham tadbirkorlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, xizmatlar sifatini oshirish va logistika jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat raxbari tomonidan eksport yo'nalishida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarni xar tomonlama qo'llab quvvatlash yuzasidan berilgan ko'rsatmalari ijrosini ta'minlash maqsadida "O'TY" AJ tomonidan 31.12.2025 yil kuni berilgan № N/727-A sonli telegrammasiga asosan 2026 yil 1 yanvardan 31 dekabrgacha eksport qatnovida yuklarni tashishda TP UTYNing jadvallari stavkalariga 60% gacha koeffitsientlar qo'llanilishi xamda "Temiryo'lkargo" AJ vagonlaridan foydalanilganda "Temiryo'lkargo" AJ xizmatlari uchun 10 foiz miqdorida chegirma, yuk ortish va yuk tushirish jarayonida bo'lgan vagonlarga 2 sutkalik imtiyozlik muddatlar taqdim etilganligi to'g'risida tushuntirildi.

Shuningdek, xozirgi kunda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruvi raisi tomonidan yuk jo'natuvchi va yuk oluvchilarga berilgan imtiyozlar, qulayliklar to'g'risida, "Yagona darcha" Veb dasturi ishlab chiqilganligi, ushbu dasturda mijozlar tomonidan yuk xujjatlarini to'liq "Yagona darcha" ATda elektron shaklda rasmiylashtirilishi to'g'risida so'z olib borildi.

Shundan so'ng yig'ilgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazilib ularning taklif va muammolari tinglandi.

Yig'ilish qatnashchilari tomonidan xozirgi kunda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan tadbirkorlarga berilayotgan imtiyozlar, qulayliklar yuzasidan muxokamalar qilindi.

Kirgili stansiyasida ishlovchi mijoz "Farg'onaazot" AJ logistika bo'limi boshlig'i D.M.Tursunov (tel raqami +998732425995) transport sexi boshlig'i I.M.Raxmonovlar (Tel raqami +998903037387) eksport va maxalliy yo'nalishlarda yuk ortib jo'natishda berilayotgan kunlik yuk ortish rejalariga muvofiq (30-35 vagon) buyurtmalariga asosan berk vagonlar (kr) bilan o'z vaqtida ta'minlanishida orada ba'zi xollarda uzilishlar bo'lib qolayotgani va

Trangroup va Sentrum xususiy vagonlarini yuklab jo'natilishida vagon aylanishini tezlashtirishni nazoratga olinishini xamda Ye-nakl dasturida vagon xujjatlarini rasmiylashtirishda kunning soat 16-00 dan 17-00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida tizimda uzilishlar bo'lib qolayotganligi, bu xolat shanba va yakshanba kunlari xam ishlashga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini, maxalliy yo'nalishlarda yuk ortishni rejalashtirish ishlarida Ye-nakl tizimiga oydan-oyga o'tish (proxodyashiy) masalasini xam kiritilishini, korxonaga yuk ortish va yuk tushirish uchun yo'llarda kelayotgan xarakatdagi vagonlar xaqida ma'lumotlarni olib turishlikni ta'minlanishi xaqida va vagonlarni ishlab chiqarishdan ajralgan xolda bekor turib qolishida qo'llaniladigan jarimalarni xam ijobiy xal qilishlikni so'rab ushbu masalalar bo'yicha amaliy yordam berishlik xaqida murojaat qilishdi va shu kabi savollariga mutaxassislar tomonidan tegishli javoblar berildi.

Quvasoy stansiyasida ishlovchi mijoz "Quvasoysement" AJ Marketing bo'limi boshlig'i J.Nurmatov (Tel raqami +998935074479) murojaat qilib: GU-12 shaklidagi buyurtmalarni rejalashtirishni tasdiqlashda muammolar bo'layotganini, shu oy oxirigacha eksport yo'nalishida yuk ortib jo'natishlik uchun kuniga 10 tadan jami 70 ta vagon kerakligini, sement tashuvchi maxsus vagonlarda kunlik yuk xajmi 10 tadan vagon bo'lib, oyiga 300 ta vagon ortib jo'nata olishligini va Qirg'izistonning Manas stansiyasiga sement maxsulotini ortib jo'natishda kuniga 10-15 tadan sv vagoni ta'minoti yetarli darajada bo'lmayotgani, bu esa korxonaning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir qilayotganini aytib eksport yo'nalishida sement maxsulotini ortib jo'natishlik uchun maxsus sement tashuvchi (sementovoz) vagonlar bilan kunlik buyurtmalarga asosan o'z vaqtida to'liq ta'minlanishi bo'yicha amaliy yordam berishlikni so'rab murojaat qildi. Muxokama davomida masalani ijobiy xal qilishlik yuzasidan "Temiryo'lkargo" AJ Qo'qon filiali boshlig'i Sh.M.Komiljonov (tel raqami +998911442662) va "Qo'qon" MTU filiali yuk va tijorat ishlari bo'limi katta noziri X.Ne'matjonovlar (tel raqami +998901247755) tomonidan temir yo'lda mijozlar bilan amaldagi tasdiqlangan va kelishilgan qo'imcha daromadlar bo'yicha ishlashlik yuzidan tegishli javob va tushuntirishlar berildi. "Quvasoysement" AJ ma'sul vakiliga xususiy konteynerlarga yuk ortib vagon platformalarda bitta manzilga marshrut qilib jo'natishlik bo'yicha berilgan takliflar ma'qul kelganligi va bu masala bo'yicha yuk jo'natuvchi va yuk oluvchilar bilan birgalikda ishlar olib borib, sement maxsulotlarini xususiy 10 tonnalik konteynerlarga ortib maxsus platforma vagonlarda jo'natish va manzil stansiyalariga yuk yetib borganida vagonlardan yukni tushirib olishlikda shart-sharoitlar yaratilishi xaqida gapirib, kelgusida ushbu yo'nalishlarda xam yuk ortib jo'natishligini ta'kiqlab o'tdi. Masalani ijobiy xal qilinishini nazoratga olishlik bo'yicha Quvasoy stansiyasi boshlig'i O'.Raxmonovga (tel raqami +998916521871)ga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Quvasoy stansiyasida ishlovchi mijoz "Kvars" AJ ta'minot bo'limi raxbari S.N.Ergashev (tel raqami +998939890198) va korxonaning temir yo'l bo'limi boshlig'i A.Xolmatovlar (Tel raqami +998936890013) murojaat qilishib: Asosan yuk ortib xom-ashyoni yetkazib kelinishida temir yo'l tomonidan vagon ta'minotida yetishmovchiliklar bo'layotgani, maxalliy yo'nalishda yuk tashishda quyidagi stansiyalarda yetarli darajada vagon bilan ta'minlanishini, ya'ni: Ziyovutdin stansiyasidan kvars qumi maxsulotini ortib kelishlik uchun oylik yuk xajmi 250-300 arim ochiq vagon (pv), xozirda 80 ta vagon kelyapti,

Dexqonobod stansiyasidan dolomit maxsulotini ortib kelishlik uchun oylik yuk xajmi 60-70 yarim ochiq vagon (pv), xozirda 30 ta vagon kelyapti, Kunxodja stansiyasidan kalsiy sodasi maxsulotini ortib kelishlik uchun oylik yuk xajmi 60-70 yarim ochiq vagon (pv), xozirda 20 ta vagon kelyapti. Shuningdek, yuklarni o'z manziliga yetkazilishida Angren stansiyasigacha bo'lgan masofada kechikishlar bo'layotganligini, Angren-Pop uchastkasida maxalliy tashuvlarda yo'l kiroga 30 % chegirma berilishi masalasini ko'rib chiqishlikni xamda Ye-nakl dasturida vagon xujjatlarini rasmiylashtirishda kunning soat 14-00 dan 18-00 gacha bo'lgan vaqt oralig'ida tizimda uzilishlar bo'lib qolayotganligini aytib ushbu masalalarni ijobiy xal qilishlik bo'yicha amaliy yordam berishlik xaqida murojaat qilishdi va shu kabi savollariga mutaxassislar tomonidan tegishli javoblar berildi. Muxokama davomida masalani ijobiy xal qilishlik yuzasidan "Temiryo'lkargo" AJ Qo'qon filiali boshlig'i Sh.M.Komiljonov (tel raqami +998911442662) va "Qo'qon" MTU filiali yuk va tijorat ishlari bo'limi katta noziri X.Ne'matjonovlar (tel raqami +998901247755) tomonidan tegishli javob va tushuntirishlar berildi.

Qo'qon mintaviy temir yo'l uzeli filialiga qarashli stansiyalarda eksport yo'nalishida faoliyat olib borayotgan yuk jo'natuvchi mijozlarning buyurtmalariga asosan "Temiryo'lkargo" AJ va boshqa xususiy vagonlar bilan o'z vaqtida ta'minlash, rejalarni elektron shaklda o'z vaqtida tasdiqlash, shunga asosan vagon ajratish to'g'risidagi buyurtmalarni tezkor ko'rib chiqish va ta'minlash yuzasidan temir yo'l mas'ul shaxslariga tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

Bayonoomani olib bordi:
Qo'qon MTUN bo'limi
yetakchi mutaxassisi



S.S.Komilov